

TARJIMADA EKVIVALENTLIKNING NAZARIY VA AMALIY TAMOYILLARI

Iroda Atxamovna Fatxutdinova

*Tayanch doktorant Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika
oliy maktabi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Toshkent, O'zbekiston*

Email: Irodaislomzoda7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola tarjima nazariyasidagi ekvivalentlik tamoyillarini lingvistik, madaniy va semiotik jihatlarni tahlil qilish orqali o'rganadi. Tarjima jarayonida ekvivalentlikka erishishning nazariy va amaliy usullari, shuningdek, hindiydan o'zbekchaga nasriy matnlar tarjimasi misolida madaniy uyg'unlikni ta'minlash strategiyalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslikda ekvivalentlik tamoyillarining ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: tarjima, ekvivalentlik, nasriy tarjima, lingvistik tahlil, madaniy uyg'unlik, semiotik yondashuv, kommunikativ maqsad.

Abstract: This article examines translation equivalence principles within linguistic, cultural, and semiotic contexts. It explores theoretical and practical approaches to achieving equivalence in translation, particularly through the lens of prose translations from Hindi into Uzbek. The findings highlight the significance of equivalence in fostering cross-cultural communication and enhancing the quality of translated texts.

Keywords: translation, equivalence, prose translation, linguistic analysis, cultural harmony, semiotic approach, communicative purpose.

KIRISH

Tarjima san'ati insoniyatning lingvistik va madaniy xilma-xilligini birlashtirib, madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashda muhim vositadir. Tarjima jarayonida nafaqat tillar o'rtasidagi ma'no almashinuvi, balki madaniy va ijtimoiy aloqalarni chuqurlashtirish, hamkorlikni rivojlantirish, madaniy merosni o'rganish va uni yangi auditoriyaga yetkazish vazifasi ham yotadi. Bu jarayonda **ekvivalentlik** tarjimaning markaziy tamoyillaridan biri sifatida shakllanib, manba matnning semantik va kommunikativ xususiyatlarini saqlab qolishga qaratilgan. Ekvivalentlik- tarjima qilingan matnning ma'no, funktsiya va uslub jihatidan manba matnga uyg'un bo'lishini ta'minlaydi.

1950-yillardan boshlab tarjima nazariyasi ekvivalentlik masalalarini keng ko'rib chiqa boshladi. Ushbu tamoyil o'ziga xos lingvistik, semiotik va madaniy murakkabliklarni ifodalashi sababli tarjimashunoslar tomonidan turli burchaklardan tadqiq qilindi. Ekvivalentlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar lingvistika, madaniyatshunoslik va semantika sohalarini birlashtirishda ham muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada

ekvivalentlikning nazariy asoslari, ularning tarjima jarayonidagi amaliy tatbiqi va hind madaniyatiga oid misollarda namoyon etilishi tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / LITERATURE REVIEW)

Tadqiqotda lingvistik, pragmatik va madaniy tahlil usullari qoʻllanildi. Tarjima nazariyasi va ekvivalentlik tamoyillariga oid nazariy tadqiqotlar asosida hindiydan oʻzbekchaga tarjima jarayonidagi ekvivalentlik darajalari oʻrganildi. Misollarni lingvistik va madaniy kontekstda tahlil qilish orqali ekvivalentlikning amaliy tatbiqini aniqlashga eʼtibor qaratildi. Ekvivalentlik tarjima jarayonida asosiy mezon sifatida qabul qilinib, manba matni bilan maqsadli tarjima matni oʻrtasidagi oʻzaro moslikni taʼminlaydi. Ushbu moslikni taʼminlashni ham oʻziga yarasha uslub va darajalari mavjud. Ekvivalentlik nazariyasiga oid tadqiqotlar koʻplab olim va nazariyotchilar tomonidan olib borilgan boʻlib, har biri bu tushunchaga oʻziga xos yondashuvni taklif etgan. Masalan J.Catford tomonidan grammatik va leksik ekvivalentlikka urgʻu berilgan boʻlsa, Yu.Nayda va S.Taber dinamik va formal ekvivalentlikni tahlil qilgan ²⁵. W.Koller esa ekvivalentlikning turlarini belgilash orqali tarjima jarayonini toʻliq tushunishga yordam bergan. R.Yakobson semiotik yondashuv orqali til kodlari va madaniy tafovutlarni hisobga oladi. U tillararo toʻliq ekvivalentlik yoʻqligini taʼkidlaydi va tarjima jarayonida maʼno kengayishini taklif qiladi. J.P.Vinay va J.Darbелnet amaliy yondashuv asosida toʻgʻridan-toʻgʻri va bilvosita tarjima strategiyalarini taklif qiladi. Ular ekvivalentlikni madaniy moslashuv uchun ideal vosita sifatida koʻradilar²⁶. M.Snell-Hornby madaniyatga asoslangan yondashuvni taklif qilib, ekvivalentlikni universal tushuncha sifatida rad etadi. U tarjimashunoslikni interdisipliner yaʼni “fanlararo yondashuv”da rivojlantirishga chaqiradi. M.Baker pragmatik va lingvistik yondashuvni uy gʻunlashtirib, soʻz darajasidan tortib, undan yuqori darajadagi ekvivalentlikni har tomonlama tahlil qiladi. Uning yondashuvi tarjima jarayonida nafaqat aniq moslikni, balki pragmatik jihatdan matnni oʻquvchiga tushunarli va qulay shaklda yetkazishni ham taʼminlaydi. Yuqorida keltirilgan nazariyotchilarning ekvivalentlikka oid nazariy yondashuvlari misollar orqali tahlil qilinib, asosiy metodologik poydevor sifatida qoʻllanildi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Tadqiqot davomida ekvivalentlik tarjimada asosiy mezon sifatida qabul qilinib, lingvistik, pragmatik va madaniy jihatlar tahlil qilindi. Lingvistik moslikni taʼminlashda J.Catford yondashuvi grammatik va leksik aniqlik uchun foydali ekani aniqlandi²⁷.

²⁵ Fatxutdinova, I. (2024). Zamonaviy tarjimashunoslikda ekvivalentlik masalasiga ilmiy-nazariy yondashuvlar. *Tarjimashunoslar VIII forumi.Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. Uzbekistan: www.oriens.uz. ISSN: 2181-1784. B.74-79.

²⁶ Ali Reza, G. *Equivalence in Translation. Translation Studies*. Yerevan State University. Vol. 7 No. 1 (8). 2011 – P.116-120.

²⁷ Catford, J.C. *A Linguistic Theory of Translation: an Essay on Applied Linguistics*. Oxford University Press. London, 1965.

Yu.Nida va S.Taber esa dinamik va formal ekvivalentlikni tadqiq qilib, tarjima jarayonida hissiy va mazmuniy uyg'unlikni muhim deb hisoblagan²⁸.

W.Koller ekvivalentlikning turlarini belgilab, tarjimada to'liq tushunish uchun nazariy asoslarni taklif etadi²⁹. R.Yakobson esa tillararo to'liq ekvivalentlikning mavjud emasligini ta'kidlab, tarjimada ma'no kengayishi va semiotik yondashuvning ahamiyatini ko'rsatgan³⁰. J.P.Vinay va J.Darbelnet to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita tarjima strategiyalarini qo'llab, madaniy moslashuv uchun bir necha usullarni taklif etgan³¹. M.Snell-Hornby esa madaniyatga asoslangan yondashuvni ilgari surib, tarjimada fanlararo yondashuv zarurligini ta'kidlaganlar³². M.Baker yondashuvi esa matnni pragmatik va lingvistik jihatdan o'quvchiga tushunarli shaklda taqdim etishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi³³. Shu tariqa, ekvivalentlik nazariyalari tarjimada uyg'un yechimlar ishlab chiqish uchun asosiy vositalar sifatida xizmat qiladi.

Ushbu maqolada tarjima nazariyasidagi turli yondashuvlar chuqur tahlil etilib, taniqli nazariyotchilarning fikrlari misollar asosida yoritildi. Nazariy asoslarni o'rganish jarayonida ekvivalentlikning tarjimada lingvistik, madaniy va semiotik uyg'unlikni ta'minlashdagi muhim ahamiyati ko'rsatildi. Tadqiqotda ekvivalentlik tamoyillarining amaliy qo'llanilishi orqali tarjimaning sifatini oshirish bo'yicha muhim jihatlar ochib berildi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

1. R.Yakobson tomonidan tarjima nazariyasiga kiritilgan ekvivalentlik tamoyili "farqdagi ekvivalentlik" tushunchasini o'z ichiga oladi. U tarjimani uch turga ajratgan: 1) *Intralingual tarjima*- bir til ichidagi lingvistik darajadagi o'zgarishlar (masalan, parafraz qilish). 2) *Interlingual tarjima*- tillararo tarjima. 3) *Intersemiotik tarjima*- belgi tizimlari o'rtasidagi tarjima³⁴. Yakobsonning semiotik yondashuvi tarjimada madaniy tafovutlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Masalan, o'zbek tilida "pishloq" mahsuloti hind tiliga "पनीर" (*Paniir*) deb tarjima qilinadi. Hind madaniyatida "paniir" pishloqning bir turi bo'lib, tvorogga yaqin mahsulot hisoblanadi. Ammo, "paniir" ayrim hollarda "brinza" degan mahsulotni ham bildirishi mumkin, shuningdek, bu mahsulot hind madaniyatiga xos bo'lgan xususiyatlarga ega. Yana bir farqi shundaki, "paniir" ba'zan ingliz tiliga "cheese" deb tarjima qilinadi, ammo ingliz tilida "cheese" boshqa ko'rinishdagi, ko'proq sutdan tayyorlangan pishloqni anglatadi. Bu farqlarni tahlil qilish orqali u tarjimonning madaniy uyg'unlikni saqlab qolish uchun mos variantni tanlashi

²⁸ Nida E., Taber C.R. *The Theory and Practice of Translation*. Leiden: E. J. Brill. (1969/1982)

²⁹ Koller, W. Target (Amsterdam). 1995, Vol 7, Num 2, pp 191-222, ISSN 0924-1884 Article

³⁰ Jakobson, R. *On Linguistic Aspects of Translation*. // *On Translation*. / Ed. by R.A. Brower, Harvard University Press. Cambridge. Massachusetts. 1959.

³¹ Vinay, J.P., Darbelnet J. *Comparative Stylistics of French and English: a Methodology for Translation*. Translated by J.C. Sager, M.J. Hamel. Amsterdam / Philadelphia: John Benjamins Publishing Company. 1995.

³² Snell-Hornby M. *Translation Studies: An Integrated Approach*. Amsterdam: Benjamins. 1988.

³³ Baker, M. *In Other Words: a Coursebook on Translation*. London: Routledge. 1992.

³⁴ V.Leonardi. *Equivalence in Translation: Between Myth and Reality*. In: *TRANSLATION JOURNAL*. -2000, ISSN 1536-7207. - 4:4. (pp. 3-10).

kerakligini bildiradi. Semiotik yondashuvni amaliy tarjima jarayonida qo'llash qiyin bo'lishi mumkin, chunki har bir madaniy belgi va kontekstni to'liq tushunish va moslashtirish ko'p vaqt va resurs talab qiladi.

2. Catford tarjima ekvivalentligini lingvistik nuqtai nazardan o'rganadi va tarjimaning turli darajalarini belgilaydi: 1) *To'liq va qisman tarjima*. 2) *Darajali va cheklangan tarjima*. 3) *Grammatik* 4) *leksik moslashuvlar*. U tarjima o'zgarishlarini rasmiy yozishmalar va matn ekvivalentligi o'rtasida farqlaydi³⁵.

Catford grammatik va leksik moslikni ta'minlashga urg'u beradi, lekin jinsga xos o'zgarishlar o'zbek tilida mavjud emasligi sababli lingvistik yondashuvda ushbu farq hisobga olinmaydi. Madaniy jihatlar esa faqat lingvistik moslikda cheklangan tarzda aks etadi. Catfordning lingvistik yondashuvi tanqidga uchragan, chunki tarjima jarayoniga madaniy va situatsion jihatlar ham ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, ushbu yondashuv texnik va rasmiy matnlarni tarjima qilishda juda qulay bo'lib, madaniyatlararo farqlarni chuqur tahlil qilishni talab etadigan hollarda qisman chegaralangan deyish mumkin.

3. Vinay va Darbelnet tarjima strategiyasini ikki asosiy turga ajratadi: *be'vosita* ya'ni to'g'ridan-to'g'ri tarjima va *bilvosita tarjima*. *Be'vosita* tarjima so'zma-so'z moslikni ta'minlaydi va madaniy yoki lingvistik muammolar bo'lmagan hollarda qo'llaniladi. *Bilvosita* tarjima esa til va madaniyat o'rtasidagi farqlarni hisobga olib, moslashuvni talab qiladi. *Bilvosita* tarjima usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) *transpozitsiya*, 2) *modulyatsiya*, 3) *ekvivalentlik*, 4) *moslashish*. Vinay va Darbelnet ekvivalentlikni "asl nusxadagi vaziyatni takrorlash, lekin boshqa so'zlarni ishlatish" deb ta'riflaydi³⁶. Bu usul maqollar, idiomalar, sifatlovchi iboralar va hayvonlar tovushlarining onomatopeyasi kabi madaniy jihatdan murakkab elementlarni tarjima qilishda ideal hisoblanadi. Masalan: "ऊंट के मुंह में जीरा।" ***Be'vosita tarjima***: "Tuya og'zida zira". ***Bilvosita tarjima (ekvivalentlik)***: "Dengizdan bir tomchi". Bu misolda *bilvosita* tarjima madaniy kontekstni hisobga olib, maqsadli til o'quvchisiga tabiiyroq va tushunarliroq ma'no yetkazadi. Bu yondashuv tarjimonlarga madaniy uyg'unlikni ta'minlashda yordam beradi.

4. Yu.Nayda va S.Taber. Ekvivalentlikni ikki asosiy turga ajratganlar: *formal ekvivalentlik* va *dinamik ekvivalentlik*³⁷. Ular ushbu tasnif orqali tarjimada manba matnning shakli va ma'nosini saqlash hamda o'quvchiga tabiiy va tushunarli mazmunni yetkazish usullari o'rtasidagi farqni aniqlaganlar. Masalan: "भगवान मेरा मार्गदर्शक है।" **Formal tarjima**: "Xudo mening yo'l ko'rsatuvchimdir". ***Dinamik tarjima***: "Xudo menga yo'l ko'rsatadi". Formal tarjima so'zma-so'z yaqin, dinamik esa mazmunni tabiiyroq aks ettiradi. Ularning fikriga ko'ra, tarjimada matnning mazmuni va hissiy ta'siri original

³⁵ J.C. Catford. *A Linguistic Theory of Translation*. Oxford University Press 1965. P.103

³⁶ Vinay, J. P., Darbelnet, J. *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology For Translation*. translated and edited by Jean Sager, & Marie-Jo Hamel. Amsterdam & Philadelphia: John Benjamins Publishing Company. 1995.

³⁷ Nida, E. A., Taber, C. R. *The Theory and Practice of Translation*. Netherlands: E. J. Brill, Leiden. 1982.

asardagi kabi bo'lishi muhimdir³⁸. Ushbu yondashuv, ayniqsa, badiiy asarlarni tarjima qilishda o'quvchining madaniy kontekstini hisobga olib, moslashuvni ta'minlash orqali samaradorlikni oshiradi. Bu yondashuv, ayniqsa, badiiy asarlarni tarjima qilishda muhim ahamiyatga egadir.

5. Koller W. Ekvivalentlikni turli nuqtai nazardan o'rganishni taklif qilgan. Misol uchun “सर्दियों में बर्फ पड़ती है।” Tarjimasi: “Qishda qor yog'adi”. Bu misolda denotativ ekvivalentlik kuzatiladi, chunki ma'no har ikkala tilda bir xil. Biroq, hind tilida “सर्दी” (“sardi”) “qor” ya'ni “sovuq”ni anglatadi, o'zbek tilida esa u qish faslini bildiradi. Kollerning ekvivalentlik nazariyasiga oid yondashuvi tarjima jarayonida chuqur tahlil va turli darajalarni hisobga olishni talab qiladi. U ekvivalentlikni tarjimada *denotativ, konnotativ, tekstual, pragmatik va formal ekvivalentlik* kabi turlarni ajratib ko'rsatgan³⁹. Bu yondashuv tarjimon uchun matnning turli jihatlarini tahlil qilish va moslashtirish imkonini beradi.

6. Mary Snell-Hornby universal ekvivalentlikni rad etadi va tarjima jarayonida matnning umumiy ma'nosiga e'tibor qaratishni taklif qiladi⁴⁰. Misol uchun: “चाँदनी रात में दिल की बातें।” Tarjimasi: “Oy nurli kechada yurak so'zlari”. Bu yerda tarjima hissiy va estetik ta'sirni to'liq aks ettira olmaydi, chunki har bir madaniyatning o'ziga xos tuyg'ulari mavjud. Bu esa madaniyatlararo muloqot jarayonida tarjimonning vazifasini yanada murakkablashtiradi degan fikrdamiz.

7. M.Baker ekvivalentlikni tarjimada texnik vosita sifatida muhim deb hisoblaydi. U so'z darajasida va undan yuqori darajadagi ekvivalentlikni tahlil qilib, grammatik moslikni va maqsadli auditoriyani hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Tarjima jarayonida grammatik kategoriyalarning farqlari (masalan, raqam, jins, zamon) tarjima murakkabligini oshiradi⁴¹. Misol uchun: Hind tilidagi “पावर सप्लाई” (*Power supply*) texnik termining tarjimasi “*Quvvat manbai*” bo'lib, bu aniq ekvivalentlikni ko'rsatadi. Texnik terminlar ma'no jihatidan bir xil bo'lgani uchun ushbu tarjima o'z o'rnida ideal hisoblanadi. Grammatik tahlilida esa bu hind tilida fe'l jinsga bog'liq ravishda o'zgaradi. Masalan, “वह स्कूल गई।” o'zbek tiliga “*U maktabga bordi*” deb tarjima qilinadi. “गई” so'zi ayol jinsini bildiradi, lekin o'zbek tilida fe'llar jinsga xos grammatik o'zgarishlarga ega emas. Shu sababli tarjimon kontekstni hisobga olishi kerak. Bunda jins ko'rsatilmaydi. “वह” so'zi birlikni bildiradi, lekin o'zbek tilida “U” so'zi ham birlik, ham ko'plik ma'nosida ishlatilishi mumkin. Tarjima jarayonida kontekstga e'tibor qaratiladi. Ayol jinsini bildiruvchi “गई” fe'li esa tarjimada maqsadli auditoriyaga ko'ra jinsini aniq ko'rsatmasligi mumkin. Bu yerda tarjimon o'quvchiga xabarni tushunarli va tabiiy yetkazishga harakat qilishi kerak. Ushbu yondashuv

³⁸ Shu yerda.

³⁹ Koller, W. Einführung in die Übersetzungswissenschaft. Heidelberg: Quelle and Meyer. 1979.

⁴⁰ Snell-Hornby M. *Translation Studies: An Integrated Approach*. Amsterdam: Benjamins. 1988.

⁴¹ Baker, Mona. *In Other Words: a Coursebook on Translation*, London: Routledge. 1992.

Bakerning lingvistik va kommunikativ ekvivalentlikka bo'lgan nazariy yondashuvini amaliy misollarda aks ettiradi va tarjimonlar uchun murakkab grammatik va kontekstual farqlarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Tarjima nazariyasida ekvivalentlik tushunchasi turli nazariy yondashuvlar yordamida sharhlangan bo'lib, har bir yondashuv tarjimaning o'ziga xos jihatlari yoritadi va ma'lum usullarni taklif etadi. Tillarning lingvistik tuzilishlari, madaniy kontekstlari va semantik birliklari bir-biridan farq qilishi sababli to'liq ekvivalentlikka erishish imkoni yo'q. Shu bois tarjimada lingvistik moslikdan tashqari, madaniy uyg'unlik va kommunikativ bog'liqlikni ta'minlash zarur. Ushbu maqolada ekvivalentlik tamoyillari tahlil qilinib, turli usullar va yondashuvlar yordamida ko'rib chiqildi hamda amaliy misollar orqali yoritildi. Natijada, tarjima jarayonining murakkabligi va ekvivalentlikni ta'minlashdagi qiyinchiliklarga oid xulosalarga ega bo'ldik.

Ushbu maqolada keltirilgan nazariyotshunoslarning yondashuvlari bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega bo'lib, tarjimon uchun mo'tadil vosita sifatida xizmat qilishiga ishonchimiz komil. Tarjima jarayonida lingvistik aniqlikni ta'minlash uchun **Catford**, hissiy va mazmuniy moslashuvni ta'minlashda **Nayda va Taber**, madaniy uyg'unlikni saqlashda **Snell-Hornby**larning nazariyalari muhim o'rin tutadi. **Ayniqsa, R.Yakobsonning** semiotik yondashuvi tarjima nazariyasida katta ahamiyatga ega bo'lib, semantik jihatdan murakkab va belgi tizimlari orqali ifodalangan matnlarni tarjima qilishda muhim vosita sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv nafaqat madaniy uyg'unlikni ta'minlashga imkon beradi, balki tarjimada chuqur nazariy asos yaratadi. Ammo, amaliyotda uni qo'llash ehtiyotkorlik va chuqur tahlilni talab qiladi. Bu yondashuvni to'g'ri yoki noto'g'ri deb baholashdan ko'ra, uni ma'lum kontekstlarda qanchalik samarali va mos ravishda qo'llash mumkinligini tahlil qilish afzalroqdir. Shu bilan birga, Yakobsonning yondashuvi madaniy va semantik farqlarni hisobga olish orqali tarjimada yangi nuqtai nazarlarni izlash va qo'llash zaruriyatini ta'kidlaydi hamda madaniyatlararo uyg'unlikni chuqurroq anglashga chaqiradi. Shunday qilib, tarjima nafaqat lingvistik jarayon, balki madaniyatlararo moslikni yaratish san'ati hamdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Baker, M. (1992) In Other Words: a Coursebook on Translation. London: Routledge.
2. Baker, M.(1997) The Routledge Encyclopedia of Translation Studies. London and New York: Routledge.
3. Bassnett, S. (1980) Translation Studies. London and New York: Routledge.
4. Catford, J.C. (1965) A Linguistic Theory of Translation: an Essay on Applied Linguistics. London: Oxford University Press.

5. Jakobson, R. (1959) On Linguistic Aspects of Translation. // On Translation./ Ed. by R.A. Brower. Cambridge. MA: Harvard University Press.
6. Koller, W. (1979). Einführung in die Übersetzungswissenschaft. Heidelberg: Quelle and Meyer.
7. Nida, E. (1964). Towards a Science of Translating. Leiden: E. J. Brill.
8. Nida, E. and Taber, C.R (1969/1982) The Theory and Practice of Translation. Leiden: E. J. Brill.
12. Ali Reza, G. (2011) Equivalence in Translation. Translation Studies. Yerevan State University. Vol. 7 No. 1 (8) – P.116-120.
13. Vanessa Leonardi, Equivalence in Translation: Between Myth and Reality, Translation Journal Volume 4, No. 4.-2000.
14. Vinay, J. P., Darbelnet, J. (1995). Comparative Stylistics of French and English: A Methodology For Translation. Translated and edited by Jean Sager, & Marie-Jo Hamel. Amsterdam and Philadelphia: John Benjamins Publishing Company.
15. Fatxutdinova, I. (2021). Tarjimada ekvivalentlikning muloqot maqsadini ifodalash vositalari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences”. Uzbekistan: www.oriens.uz. volume 1 | special issue 2. – B.140-149.
16. Khodjaeva, N. (2019). Semantics of kinship terms as a form of address in uzbek translations of premchand. Theoretical and Applied Science, (8), 107-110.
17. Fatxutdinova, I. (2022). Psixologik mazmundagi asarlar tarjimasida ekvivalentlik masalasi (Hindiy tilidagi asarlar misolida). Tarjimashunoslar forumi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences”. Uzbekistan: www.oriens.uz. volume 2 | special issue 29.– B.69-77
18. Fatxutdinova, I. (2022). Hindiycha o‘zbekcha o‘xshatishlar tarjimasida ekvivalentlik masalasi. NamDU ilmiy axborotnomasi yil 6-soni ISSN 2181-0427. B.419-424.
19. Fatxutdinova, I. (2024). Zamonaviy tarjimashunoslikda ekvivalentlik masalasiga ilmiy-nazariy yondashuvlar. Tarjimashunoslar VIII forumi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences”. Uzbekistan: www.oriens.uz. ISSN: 2181-1784. B.74-79.